

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04
RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

MILLIY ARXEOLOGIYA MARKAZI

IBRAGIMOV RAXMON ZIYODULLAYEVICH

**TOSHKENT VOHASINING QADIMGI DAVR TARIXIY
REKONSTRUKSIYASI (ARXEOLOGIK MATERIALLAR ASOSIDA)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Ibragimov Raxmon Ziyodullayevich

Toshkent vohasining qadimgi davr tarixiy rekonstruksiyasi (arxeologik materiallar asosida).....3

Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич

Историческая реконструкция Ташкентского оазиса древнего периода (по археологическим материалам).....25

Ibragimov Rakhmon Ziyodullaevich

Historical reconstruction of the ancient Tashkent oasis (based on archaeological materials).....47

E’lon qilingan ishlar

Список опубликованных работ

List of published works51

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04
RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

MILLIY ARXEOLOGIYA MARKAZI

IBRAGIMOV RAXMON ZIYODULLAYEVICH

**TOSHKENT VOHASINING QADIMGI DAVR TARIXIY
REKONSTRUKSIYASI (ARXEOLOGIK MATERIALLAR ASOSIDA)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar1407 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy arxeologiya markazida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-tarix.nuu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Suleymanov Rustam Xamidovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ataxodjayev Azimxo'ja Muzaffarovich
tarix fanlari doktori, dotsent

Egamberdiyeva Nigora Azatovna
tarix fanlari doktori (DSc)

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «28» 03 soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakulteti, 1-qavat, 110-auditoriya. Tel.: +99871 227-12-24; faks: +99871 246-53-21, +99871 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (21 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Bosh bino. Tel.: +99871 236-46-55; faks: +99871 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «15» 03 kuni tarqatildi.
(2024 yil «14» 03 daqi 4 raqamli reyestr bayonnomasi.)



X.E. Yunusova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

J.E. Tog'ayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.d. (PhD)

N.U. Musayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XXI asr globallashtirish jarayoni ta'sirida kishilik jamiyatining qadimgi davr tarixini, xususan, etnomadaniy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixini moddiy va yozma manbalar asosida o'rganish va ularni qayta tiklash muhim vazifalardan biriga aylangan. Shu sababli dunyoda qadimgi davr tarixini moddiy manbalar asosida tarixiy rekonstruksiya qilishga e'tibor yanada kuchaygan. Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan "Toshkent tarixi va madaniy merosini o'rganish"ga katta e'tibor qaratilayotgani ham mavzumizning dolzarb masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Dunyo hamjamiyati Markaziy Osiyoni qadimgi dunyo sivilizatsiyasi markazi sifatidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Respublikamiz va xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan Markaziy Osiyoning qadimgi davr arxeologik yodgorliklarida keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, paleolit va mezolit davrlar tarixi, paleometall davri ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlari va qadimgi davr urbanizatsiyasi hamda davlatchiligini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Toshkent vohasi yerlarining tosh davri antropogen o'zlashtirilish jarayoni, madaniyatlar genezisi, bronza va ilk temir davrlari antropogen o'zlashtirilish xususiyatlari hamda antik davrida kechgan etnomadaniy va urbanizatsiya jarayonlari masalasi ustuvor mavzular sifatida o'rganilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi davrida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatda rivojlanib borish bilan birgalikda ilm-fan sohasining taraqqiyotida ham muhim yutuqlarga erishildi. Ayniqsa, Vatanimizning muhim qismi hisoblangan Toshkent vohasi tarixini tadqiq etishda ham ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Shunga ko'ra mavzumiz o'tgan davr mobaynida to'plangan materiallarni mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan materiallar bilan qiyosiy tahlil qilish asosida o'lka tarixini qayta tiklashga qaratilgan. Toshkent vohasining ibtidoiy davr antropogen o'zlashtirilishi, tosh davri madaniyatlari genezisi, paleometall davri etnomadaniy jarayonlari, arxaik davr chorvador qabilalar madaniyati, antik davri migratsiya jarayonlari, vohaning Qang' konfederatsiyasi tizimidagi o'rni, shaharsolik madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini moddiy hamda yozma manbalar asosida yaxlit tadqiqot sifatida o'rganish O'zbekiston tarixining muhim vazifalaridan biridir.

Respublikamiz hukumati tomonidan e'lon qilingan huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmonlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda "Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan yaxshilash to'g'risidagi" PQ-4068-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentabrda "Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillishtirish to'g'risida"gi 792-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-5841063>

sonli Qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Toshkent vohasi arxeologiyasining rivojlanish tarixini quyidagi to'rt bosqichga bo'lib o'rganish mumkin: 1) XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga oid kolleksioner-o'lkashunos tadqiqotchilarning havaskorlik xarakteridagi izlanishlari. 2) XX asrning 20-40-yillarning boshlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ishlarining shakllanishi bosqichi hisoblanib, ular topografik va stratigrafik qazishma xarakterga ega bo'lgan. 3) 1945-1980 yillardagi arxeologik tadqiqot ishlarining rivojlangan bosqichida asosiy e'tibor yodgorliklarni stratigrafik qazish ishlariga qaratilgan. Madaniy qatlarni kuzatish orqali arxeologik majmualarning tadrijiy taraqqiyoti o'rganilgan. Ushbu bosqichda qadimgi davr ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan bog'lik masalalar tadqiqotchi olimlarning nazariy ishlanmalarida tahlil qilingan². 4) 1991-2022 yillardagi tadqiqotlar stratigrafik qazish metodlarining takomillashishi, aniq fanlar (mutlaq davrlashtirish usullarining takomillashishi, arxeologiyada GAT texnologiyalarining qo'llanilishi) va multidissiplinar (fanlararo) tadqiqotlarning amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Arxaik va antik davri tarixi, ayniqsa, chorvador qabilalar ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq masalalar tadqiqotchilarning nazariy ishlanmalarida muhokama qilingan³.

Mavzuning arxeologik o'rganilish darajasi esa ishimizning I bobida to'laligicha yoritib berilgan.

² Толстов С.П. Древний Хорезм (Опыт историко-археологического исследования). – М.: МГУ, 1948. – С. 10; Бичурин И.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том II. М., 1950. – С. 154, 183; Бернштам А.Н. Очерк истории гуннов. – М., 1951. – С. 84; Кюннер Н.В. Китайские известия о народах Южной Сибири, Центральной Азии и Дальнего Востока. – М.-Л., 1987. – С. 128-131; Пьянков И.В. К вопросу о маршруте похода Кира II на массагетов // ВДИ. Вып. 3. М.: Наука, 1964. – С. 115-130; Uning o'zi. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. Душанбе: Дониш, 1975. – С. 191; Литвинский Б.А. Древние кочевники «Крыши Мира». – М.: Наука, 1972. – С. 173; Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы города и городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 102-120; Филанович М.И. Ташкент: зарождение и развитие города и городской культуры. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 21-35; Шониёзов К.Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар (Ўзбек халқининг сиёсий ва этник тарихидан). – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 159.

³ Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. – М: Восточная литература, 1999. – С. 195-223; Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 103-150; Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана. Книга I. Урбанизация Казахстана в эпоху бронзы-раннем средневековье. – Алматы, 2012. – С. 109-115; Пьянков И.В. Средняя Азия и Евразийская степь в древности. – СПб: Петербургское лингвистическое общество, 2013. – С. 423; Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – С. 98-160; Uning o'zi. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. – Б. 306; Иномов О.У. Қовунчи маданияти ва унинг ўзбек халқининг шаклланишидаги роли. Т.ф.ф.д. (PhD) автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 5-22; Яценко С.А. Очерк социально-политической истории «кочевой империи» Кангюй. // Археология и история Кангюйского государства. – Шымкент, 2020. – С. 23-49; Suleimanov R.N. Traces of the Dahae and Sarmatian Cultural Legacy in Ancient Turan and Old Rus. // Археология, этнография и антропология Евразии. Том 49, № 3. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2021. – С. 60-74; Сулейманов Р.Х. Роль кочевников в истории Центральной Азии. // ИМКУ. Вып. 42. – Ташкент: Фан, 2022. – С. 44-61; Подушкин А. Кангюй в свете палеолингвистических, нумизматических и археологических источников. // ИМКУ. Вып. 42. – Ташкент: Фан, 2022. – С. 90-115.

Tadqiqotning maqsadi Toshkent vohasining qadimgi davr tarixini moddiy manbalar va mavjud yozma manbalar asosida qayta tiklashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Toshkent vohasining tosh davri antropogen o'zlashtirilish omillari, madaniyatlar genezisi va antropogenez masalalarini tahlil qilish;

- Toshkent vohasining so'nggi bronza va ilk temir davrlari arxeologiyasida tarixiy rekonstruksiya masalalarini ochib berish;

- Toshkent vohasi hududida tarqalgan ko'chmanchi chorvador qabilalar tarixini qayta tiklash;

- Antik davrda Toshkent vohasida sodir bo'lgan migratsiya jarayonlarini arxeologik va tarixiy ma'lumotlar asosida yoritib berish;

- Toshkent vohasining qadimgi davr shaharsozlik madaniyatining shaklanishi va taraqqiyoti, me'morchiligi masalalarini rekonstruksiya qilish;

- Toshkent vohasining qadimgi davr ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari va diniy qarashlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti Toshkent vohasi arxeologiya yodgorliklari va ulardan topilgan moddiy manbalar hamda qadimgi davrga oid yozma manbalar tadqiqotning obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini Toshkent vohasida sodir bo'lgan kulturogenез va tarixiy-madaniy jarayonlar va ularning tarixiy rekonstruksiya masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada arxeologik manbalar va tarixiy materiallarni tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, Toshkent vohasi tarixiga oid barcha manbalarni umumlashtirish, tarixiylik, xolislik tamoyillari kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda iborat:

mil. avv. XV–XIII asrlarda Toshkent vohasining tog' va tog' oldi yerlarida Yevrosiyoning shimoliy dasht hududga xos chorvadorlar jamoasi madaniyati tarqalganligi aniqlanib, bronza davrining mazkur jamoalari negizida Burgulik madaniyati vujudga kelib, mil. avv. XIII–IX asrlar davrida Burgulik I bosqichi faoliyat yuritganligi va ularning iqtisodida chorvachilik xo'jaligi asosiy o'ringa ega bo'lganligi asoslangan;

Toshkent vohasi hududida Burgulik II davrida (mil. avv. VIII/VII–IV asrlarda) chorvador qabilalari madaniyati tarqalib, ular alohida sak qabilasiga tegishli arxeologik majmuani tashkil qilganligi dalillangan;

antik davrida sodir bo'lgan migratsiya va madaniy ta'sirlar (sak, so'g'd-ellin va dax) jarayonlari va ularning davriy chegarasi aniqlanib, Yaksart orti saklari va Qang' davlati aholisi turkiy xalqlar bo'lganligi dalillangan;

Shoshtepa, Mingo'rik va Qanqa manzilgohlaridagi ibodatxonalarda o'z aksini topgan moddiy manbalar asosida Toshkent vohasining antik davri aholisi diniy e'tiqodida quyosh-olov kulti va ajdodlar kulti bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Toshkent vohasi arxeologik ma'lumotlarini tarixiy jihatdan talqin qilish, ulardan o'lka tarixini qayta rekonstruksiya qilish jarayonida foydalanish orqali tarixiy-

qiyosiy tahlil tamoyillar asosida yangi ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Tadqiqot ishining ilmiy natijalari asosida ilmiy maqolalar va o'quv qo'llanma chop etilgan, umumlashgan ilmiy ma'lumotlar o'quv jarayoniga tadbiiq etilgan.

Tadqiqot ishida erishilgan nazariy yutuqlar Toshkent vohasining qadimgi tarixi bazasini yangi ilmiy xulosalar bilan boyitish va kengaytirishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tarix fanida e'tirof etilgan tadqiqot usullarining qo'llanilganligi, arxeologiya sohasida qo'lga kiritilgan eng so'nggi ma'lumotlar, tarixiy adabiyotlar va zamonaviy ilmiy yondashuvlardan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fanlararo (tarix, arxeologiya, manbashunoslik, tarixiy geografiya) sohalarida yangi ilmiy yo'nalishlarni yaratish, Toshkent vohasining qadimgi davr ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarini o'rganishda ilmiy-nazariy uslublarni takomillashtirish imkonini beradi va tarix fanini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ushbu ma'lumotlardan Oliy ta'lim muassasalarining tarix yo'nalishi "Arxeologiya" va "O'zbekiston tarixi" fanlari, Arxeologiya yo'nalishi "O'rta Osiyo arxeologiyasi" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda, o'lkaning tarixiy-madaniy merosini targ'ib qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Toshkent vohasi arxeologiya yodgorliklarini tadqiq etish doirasida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, taklif va tavsiiyalar asosida:

mil. avv. XV–XIII asrlarda Toshkent vohasining tog' va tog' oldi yerlarida Yevrosiiyoning shimoliy dasht hududga xos chorvadorlar jamoasi madaniyati tarqalganligi aniqlanib, bronza davrining mazkur jamoalari negizida Burgulik madaniyati vujudga kelib, mil. avv. XIII–IX asrlar davrida Burgulik I bosqichi faoliyat yuritganligi va ularning iqtisodida chorvachilik xo'jaligi asosiy o'ringa ega bo'lganligi, Toshkent vohasi hududida Burgulik II davrida (mil. avv. VIII/VII–IV asrlarda) chorvador qabilalari madaniyati tarqalib, ular alohida sak qabilasiga tegishli arxeologik majmuani tashkil qilganligiga doir ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash va ilmiy tadqiq etish sohalarida tadbiiq etildi (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 7-sentabrdagi 02-05/3081-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Burgulik madaniyati borasidagi bilimlar kengayishiga, Burgulik II davrining o'ziga xos xususiiyatlari borasida xulosalar chiqarishga xizmat qilgan;

antik davrida sodir bo'lgan migratsiiya va madaniy ta'sirlar (sak, so'g'd-ellin va dax) jarayonlari va ularning davriy chegarasi aniqlanib, Yaksart orti saklari va Qang' davlati aholisi turkiy xalqlar bo'lganligi, Shoshtepa, Mingo'rik va Qanqa manzilgohlaridagi ibodatxonalarda o'z aksini topgan moddiy manbalar asosida Toshkent vohasining antik davri aholisi diniy e'tiqodida quyosh-olov va ajdodlar kulti bo'lganligiga doir xulosalardan Oliy ta'lim muassasalari Tarix ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan "Arxeologiya" o'quv qo'llanmasini yozishda va ularning fan dasturlarini tuzishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta

maxsus ta'lim vazirligi, 2018-yil 27-martdagi 274-020 raqamli guvohnoma). Ushbu ma'lumotlar Toshkent vohasining qadimgi davr tarixi xususida yangicha qarashlarni shakllantirishga xizmat qilgan;

Toshkent vohasining paleolit davri jamoalari tomonidan o'zlashtirilishi, tosh davri madaniyatlari genezisi, ularning mansublik muammolari, atropogenez va tarixiy-madaniy jarayonlarni tadqiq etilishi hamda ularning rekonstruksiya masalasiga doir ilmiy tadqiqot natijalaridan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Xazina" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zMTRK "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 17-iyuldagi 16-28-1107-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Toshkent vohasi qadim tarixiga oid ma'lumotlar keng jamoatchilikka yetib borishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 12 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan 10 ta Respublika ilmiy-amaliy va 2 ta xalqaro konferensiyada aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 24 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari uchun asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola, jumladan, 10 ta respublika miqiyosidagi jurnallarda, 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilish va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va shartli qisqartmalar ro'yxatidan iborat. Ishning tadqiqot qismi 125 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda uning obyekt va predmeti belgilab olingan. Ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning tarix fani uchun nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobini "**Toshkent vohasi arxeologiya yodgorliklarining o'rganilish bosqichlari**", deb nomlanadi. Birinchi bobning birinchi paragrafi "*XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning 80-yillarida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari*", deb nomlangan. Toshkent vohasining qadimgi tarixi va moddiy madaniyatini o'rganishga qiziqish Rossiya imperiyasi istilosining dastlabki yillaridan boshlangan. Vohaning arxeologik yodgorliklari (Shohruxiya, Kanka, No'g'ayqo'rg'on) to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar rus musavviri V.V. Vereshaginning chizgilari va estaliklarida berilgan⁴. 1871-yilda G.V. Grigoryev ilk

⁴ Верещагин В.В. Очерки, наброски, воспоминания. – СПб., 1883. – С. 81-82.

bor antik davri yozma manbalari asosida saklar tarixini tahlil qilgan⁵. 1887-yilda N.P. Ostroumov Toshkent shahri yaqinida antik davriga oid qabr inshootni qazib o‘rgangan⁶.

1895-yilda Toshkentda “Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagi tuzilgandan⁷ so‘ng vohaning madaniy meros yodgorliklarini o‘rganishning ahamiyati oshgan. To‘garak a‘zolari (N.P. Ostroumov, Ye.T. Smirnov, I.A. Belyayev va boshqalar) Shoshtepa, Qanqa, Shohruxiya, Xonobod manzilgohlarini tekshirgan⁸. 1898-yilda “Chimboyliq xazinasi” topilib, tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan⁹. 1913 yilda J.A. Kastanye “Nikifirov yerlarida” mil. avv. II asr oid qabrni o‘rgangan¹⁰. THAT (Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagi) a‘zolari tomonidan tashkil qilingan tadqiqotlar o‘lkashunoslik xususiyatiga ega bo‘lishiga qaramasdan keyingi davr arxeologik tadqiqotlarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Ikkinchi bosqichda (1918-1940 yillar) amalga oshirilgan arxeologik tadqiqot ishlari 1918-yil 5-oktabrda sobiq Sovet hukumatining dekreti bilan tuzilgan “Turkiston ASSRda muzeylar va asori atiqalar, san‘at va tabiat yodgorliklarini saqlash” (Turkomstris – Sredazkomstaris – Uzkomstaris) davlat tashkilotning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Mazkur tashkilotning amaliy faoliyati natijasida o‘tgan asrning 30-yillarida Chirchiq daryosining o‘rta oqimidagi yodgorliklar tekshirilib, ular ro‘yxatga olingan va ayrimlarida qazish ishlar amalga oshirilgan (A.A. Potapov, M.Ye. Masson, V.D. Jukov, G.V. Grigoryev, T.G. Obolduyeva)¹¹. Qovunchitepa manzilgohida amalga oshirilgan qazishmalar natijasida arxeologiya fanga Qovunchi madaniyati, Junariqda o‘rganilgan qabr inshootlar asosida Jun madaniyati kiritilgan. 1940-yilda A.I. Terenojkin va T. Mirg‘iyozov Toshkent kanali qurilishi hududidagi yodgorliklarni o‘rgangan. Burguliksoyda joylashgan yerto‘la uylari asosida A.I. Terenojkin arxeologiya faniga Burgulik madaniyatini kiritgan¹².

Uchinchi bosqichda (1945-1991 yillar) olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy

⁵ Григорьев Г.В. О скифском народ саках. – СПб., 1871. – С. 1-201.

⁶ Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сирдарьи в I тысячелетии н.э. // Тр. ХАЭЭ. – М.: Наука, 1971. – С. 163-177.

⁷ Пугаченкова Г.А., Германов В.А. Туркестанский кружок любителей археологии и домусульманские древности Средней Азии (к 100 летию Туркестанского кружка любителей археологии) // ВДИ. Вып. 4. – М.: Наука, 1996. – С. 189-195.

⁸ Смирнов Е.Т. Древности в окрестностях г. Ташкента. // ПТКЛА, I. – Ташкент, 1896. – С. 5-10; Uning o‘zi. Развалины городища Канка. // ПТКЛА, V. – Ташкент, 1901. – С. 37-44.

⁹ Воронец М.Э. Браслеты бронзовой эпохи Музея истории АН УзССР. // Труды ИИА АН УзССР. Том I. – Ташкент, 1948, – С. 69; Тереножкин А.И. Согд и Чач. // КСИИМК. Вып. XXXIII. – М.-Л., 1950. – С. 153-155, табл. XV.

¹⁰ Обельченко О.В. К изучению курганных погребений в Средней Азии. // ИМКУ. Вып. 5. – Ташкент: Фан, 1964. – С. 218-219.

¹¹ Буряков Ю.Ф., Касымов М.Р., Растовцев О.М. Археологические памятники Ташкентской области. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 120; Григорьев Г.В. Отчет об археологической разведке в Янгиюльском районе УзССР в 1934 г. – Ташкент, 1935. – С. 39; Uning o‘zi. Краткий отчет о работе Янгиюльской археологической экспедиции 1937 г. – Ташкент, 1940. – С. 9; Uning o‘zi. Келесская степь в археологическом отношении // Изв. АН Каз ССР. Серия археологическая, № 1. – Алма-Ата, 1948. – С. 49; Оболдуева Т.Г. Курганы каунчинской и джунской культур в Ташкентской области. // КСИИМК. Вып. XXVIII. – М.-Л.: Наука, 1948. – С. 201-202.

¹² Тереножкин А.И. Памятники материальной культуры на Ташкентском канале (Предварительные данные) // Известия УзФАН. Вып. 9. – Ташкент, 1940. – С. 30-36; Uning o‘zi. Материалы бургулюкской и каунчинской культур в зоне Ташкентского канала // Древняя и средневековая культура Чача. – Ташкент: Фан, 1979. – С. 18.

xususiyatiga ko'ra ikkita bosqichi ajralib turadi. Dastlabki bosqichida arxeologik tadqiqot ishlari O'zSSR FA Tarix va arxeologiya instituti, O'zSSR FA Tarix muzeyi va O'ODU (ToshDU) tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. 1945-yilda Chotqol daryosi hududida mil. avv. XII-XI asrlarga oid qabr inshootlar va turli xil kuzatuv buyumlar aniqlangan¹³. 1947-yilda M.E. Voronets Vrevskiy (Olmazor) stansiyasi yaqinida I asrga oid qabr-qo'rg'onlarni o'rgangan¹⁴. XX asr 50-60-yillarida Chirchiq va Ohangaron daryolarining yuqori oqimi hududidagi paleolit davri yodgorliklarida keng ko'lamli stratigrafik qazish ishlari olib borilib, o'rta va so'nggi paleolit davrlariga oid muhim ma'lumotlar qo'lga kiritilgan (A.P. Okladnikov, X.K. Nasriddinov, R.X. Suleymanov, M.R. Qosimov, O. Tashkenboyev)¹⁵.

XX asrning 50-60-yillarida Yu.F. Buryakov, D.G. Zilper, O.V. Obelchenko Mingo'rik manzilgohida amalga oshirgan tadqiqot ishlari davomida so'nggi antik davri madaniy qatlami va so'nggi bronza davriga oid qabrni o'rgangan¹⁶. 1958–1963-yillarda Chordara suv ombori qurilish hududida ilk temir, antik davrlariga oid qabr inshootlar va manzilgohlarda qazish ishlarini olib borilgan¹⁷. 1967-yilda U.I. Islomov Qo'shilish makonini qazib, undan topilgan materiallarni mil. avv X-IX asrlar bilan sanalaydi¹⁸. 1967-yilda S. Raximov Serkali makonida so'nggi bronza davriga oid uy-joy qoldiqlarini ochgan¹⁹. 1967-yilda Toshkent shahrining yangi qurilish hududida zilzila oqibatlarini bartaraf etish maqsadida maxsus "Toshkent otryadi" tashkil etilgan. Mazkur otryad tomonidan shahar va uning atrofidagi yodgorliklarda keng ko'lamli qazish ishlari amalga oshirilgan²⁰.

1970-yilda O'zSSR FA Arxeologiya instituti tashkil etilgandan keyingi tadqiqot ishlari uchinchi davrining ikkichi bosqichi hisoblanib, ular asosan stratigrafik xarakterga ega bo'lgan. XX asr 70-yillarning birinchi yarmida maxsus Toshkent otryadi shahar va uning atrofidagi yodgorliklarda tadqiqot ishlarini davom ettirib, u

¹³ Воронец М.Е. Отчет археологической экспедиции Музея истории Академия наук УзССР о раскопах погребальных курганов первых веков н.э. возле ст. Вревская в 1947 г. // Труды музея история народов Узбекистана. Вып. I. – Ташкент, 1951. – С. 43-73.

¹⁴ O'sha joyda.

¹⁵ Okladnikov A.P., Islamov O.I. Палеолитические находки в урочище Шуралисай (Бузу-2) // ИМКУ. Вып. 2. – Ташкент: Фан, 1961 – С. 51-60; Islamov U.I. Памятники первобытной культуры Ташкента и его окрестности (памятники эпохи палеолита). // У истоков древней культуры Ташкента. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 38-43, 60-65; Okladnikov A.P. Ходжикентская пещера-новый мустьерский памятник Узбекистана. // КСИА. Вып. 82. – М: Наука, 1961. – С. 68-76; Uning o'zi. Краткий отчет о раскопах Ходжикентской пещеры в 1958 г. // ИМКУ. Вып. 4. – Ташкент: Фан, 1963. – С. 23-30; Касымов М.Р. Палеолитические памятники в верховьях бассейна Чирчика // Древности Чарвака. – Ташкент: Фан, 1976. – С. 19; Насриддинов Х.К. Грот Обирахмат // ИМКУ. Вып. 5. – Ташкент: Фан, 1964. – С. 21-27; Касымов М.Р. Археологические работы в Узбекистане // АО-1967 г. – М: Наука, 1968. – С. 326-327.

¹⁶ Буряков Ю.Ф., Зильпер Д.Г. Археологические наблюдения в 1957 г. на городище Мингурюк в Ташкенте // Труды ТашГУ. Вып. 172. – Ташкент, 1960. – С. 128-146; Зильпер Д.Г., Булатовой В.А., Филанович М.И., Ртвеладзе Л.Л., Брусенко Л.Г., Дадабаев Г. Ташкент в древности и в средние века // Древний Ташкент. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 47.

¹⁷ Максимова А.Г., Мершиев М.С., Вайнберг Б.И., Левина Л.М. Древности Чардары (Археологические исследования в зоне Чордаринского водохранилища. – Алма-Ата: Наука, 1968. – С. 270.

¹⁸ Islamov U.I. Памятники первобытной культуры Ташкента и его окрестности (памятники эпохи палеолита) // У истоков древней культуры Ташкента. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 72-90.

¹⁹ Рахимов С. Стоянка эпохи бронза Серкали. // ОНУ. Вып. 6. – Ташкент: Фан, 1970. – С. 41.

²⁰ Древний Ташкент. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 18-108; Дадабаев Г. Г. История орошения правобережной части Чирчикской долины (с древнейших времен до начала XIII в.). АКД – Ташкент, 1974. – С. 3-16.

yerlardagi manzilgohlarning so‘nggi antik davriga oid qatlamlarini o‘rgangan²¹. Bu davrda O‘z SSR FA Arxeologiya instituti Tuyabo‘g‘iz arxeologik otryadi suv ombor hududida joylashgan turli davrlarga oid yodgorliklarni o‘rgangan²².

1978-1982-yillarda M.I. Filanovich boshchiligidagi otryad Shoshtepa manzilgohining arkida keng ko‘lamli qazishma ishlarini amalga oshirib, qadimgi diniy inshootning o‘rni ochib o‘rgangan²³. 1980–1982-yillarda Tuyabo‘g‘iz suv omborida X. Duke Burgulik madaniyatiga oid qurilish imoratlari va metall hunarmandchilik izlarini aniqlagan²⁴.

M.R. Qosimov Ko‘lbuloq makonida 1963-yilda boshlagan qazish ishlarini 1985-yilgacha davom ettirgan. Makon madaniy qatlamining qalinligi 19 m dan iborat stratigrafiyasini 49 ta madaniy qatlamga ajratib, ashel davrining oxiri–so‘nggi paleolit davrlari bilan sanalagan²⁵.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “*XX asrning oxiri – XXI asrning boshlarida olib borilgan tadqiqotlar tarixi*” deb nomlanadi. 1994-yilda O‘zbek-Rossiya qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi Ko‘lbuloq, Qizilolma 1,2 va Jarsoy 1,2 makonlarini o‘rganadi²⁶. 1998-yilda RF FA SB AETI va O‘zR FA Arxeologiya institutlari hamkorlikda Obirahmat makonida qazish ishlari qayta tashkil etgan. 2012-yilgacha davom etgan qazishma natijasida 37 ta madaniy qatlam aniqlanib, ulardan o‘rta paleolitning yakuniy bosqichidan so‘nggi paleolitga o‘tish texnikasini namoyon qilgan tosh qurollar majmuasi o‘rganilgan²⁷. Mazkur ekspeditsiya 2005–2007-yillarda paleolit davriga oid Dodikatim 1,2 (To‘daxotin), 2007–2008-yilda Ko‘lbuloq va Qizilolma²⁸, 2013–2018-yillarda Kattasoy 1,2²⁹, 2018–2022-yillarda Ertashsoy

²¹ Булатова В.А., Брусенко Л.Г., Зильпер Д.Г., Ртвеладзе Л.Л., Филанович М.И. Работа Ташкентского отряда. // АО-1971 года. – М: Наука, 1972. – С. 515-517; Булатова В. А., Филанович М.И., Зильпер Д.Г. Итоги раскопок в г. Ташкент. // АО-1973. – М: Наука, 1974. – С. 476.

²² Касымов М.Р., Буряков Ю.Ф. Новые местонахождения каменного века в Ташкентском оазисе. // ОНУ. Вып. 11. – Ташкент: Фан, 1974. – С. 60-62; Касымов М.Р. Местонахождения каменного века. // Древности Туябугуза. Ташкент: Фан, 1978. – С. 17-46; Дукe X. Новая стоянка эпохи бронзы Ташкентской области. // ИМКУ. Вып. 15. – Ташкент: Фан, 1979. – С. 44-48; Унинг о‘зи. Раскопки памятников бургулюкской культуры в 1975 г. // ИМКУ. Вып. 13. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 48-53; Унинг о‘зи. К вопросу о бургулюкской культуре. // ОНУ. Вып. 8. – Ташкент: Фан, 1976. – С. 48-52; Алимов К., Буряков Ю. Ф. Погребальные сооружения. // Древности Туябугуза. –Ташкент: Фан, 1978. – С. 113-120.

²³ Филанович М.И. Работы в Ташкенте. // АО-1979 года. – М: Наука, 1980. – С. 459-461.

²⁴ Абдуллаев Б.Н., Дукe X. Исследования в зоне Туябугузского водохранилища в 1980 г. // ИМКУ. Вып. 20. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 28-32; Абдуллаев Б., Дукe X. Некоторые итоги исследования памятников бургулюкской культуры в 1981-1982 гг. // ИМКУ. Вып. 21. – Ташкент: Фан, 1987. – С. 11-21.

²⁵ Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований многослойной стоянки Кульбулак (по данным раскопок 1980-1982 гг.) // ИМКУ. Вып. 19. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 3-18; Касымов М.Р., Тетюхин Г.Ф., Годин М.Х., Хусанбаев Д.И. К вопросу о комплексном исследовании многослойной палеолитической стоянки Кульбулак в Узбекистане // КСИА. Вып. 181. Каменный век. – М: Наука, 1985. – С. 101-109; Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. АДД. –Новосибирск, 1990. – С. 3-43.

²⁶ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Новые исследования палеолита в Ахангаране (Узбекистан). – С.-Пб, 1995. – С. 27-28.

²⁷ Кривошапкин А.И. Оби-Рахматский вариант перехода от среднего к верхнему палеолиту в Центральной Азии. АДД. – Новосибирск, 2012. – С. 16-18.

²⁸ Кривошапкин А.И., Милютин К.И., Новиков И.С., Исламов У.И., Мухаммадиев А.Г. Новые верхнепалеолитические стоянки в бассейне реки Пальтау (Республика Узбекистан) // ИМКУ. Вып. 35. – Ташкент: Фан, 2006. – С. 19-23; Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Хареvич В.М. Индустрия стоянки Додекатым 2 (Узбекистан) Новые данные по верхнему палеолиту региона. // Вестник НГУ. Серия: История, филология. 2009. Том 8, выпуск 5: Археология и этнография. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2009 – С. 74-97; Колобова К.А., Кривошапкин А.И., Деревянко А.П., Исламов У.И. Верхнепалеолитическая стоянка

(Ertoshsoy 1-12) va Ko'ksaroy (Ko'ksaroy 1-9)³⁰ yodgorliklarida tadqiqot ishlarini olib borilgan. 2022-yilda O'zR FA MAM ilmiy xodimi A.G'. Muhammadiyev paleolit davriga oid Muzbel ustaxona-makonini o'rgangan³¹.

2000–2002-yillarda M.I. Filanovich rahbarligidagi arxeologik guruh Shoshtepa manzilgohining arkida qizish ishlarini davom ettirib, ular ibodatxona inshootiga tegishli bir nechta xonalarni o'rgangan³². 2008–2009-yillarda Toshkent shahrining 2200-yillik yubileyini o'tkazish munosabati bilan Mingo'rik manzilgohining arkida tadqiqot ishlari olib borilgan. Natijada so'nggi antik davriga oid ibodatxona inshootining o'rni ochilgan³³. 2009-yildan 2019-yilgacha Ohangaron daryosining yuqori oqimi hududida olib borilgan tadqiqotlar davomida Do'lanabuloq, Taypan, Tarqushin va Ertosh-Do'lana qabr-qo'rg'onlari o'rganilgan³⁴.

2012-yilda Angren-Pop temir yo'li qurilish hududida antik davrga oid uchta qabr-qo'rg'on tadqiq etilgan³⁵. 2014–2018-yillarda Ohangaron vohasida amalga

Додекатым-2 (Узбекистан) // Археология, этнография и антропология Евразии. № 4 (48). – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2011. – С. 2-21; Колобова К.А., Павленок К.К., Фляс Д., Кривошапкин А.И. Стоянка Кызыл-Алма-2 - новый памятник эпохи верхнего палеолита Западного Тянь-Шаня // Вестник НГУ. Серия: история, филология. Том 9. Вып. 5: Археология и этнография. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2010. – С. 111-123.

²⁹ Павленок К.К., Кот М., Павленок Г.Д., Шнайдер С.В., Шимчак К., Крайцардж М.Т., Крайцардж М., Лазарев С.Ю., Когай С.А., Хужаназаров М., Смирнов Б.М. Палеолитическая стоянка Каттасай-2 в западных отрогах Тянь-Шаня: первые результаты исследований // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том XXIII. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2017. – С. 186–189.

³⁰ Павленок К.К., Кот М., Павленок Г.Д., Шимчак К., Хужаназаров М., Когай С.А. Поиски объектов палеолита в бассейне реки Ахангаран: история и современность. // Теория и практика археологических исследований №2 (26). – Барнаул: АлтайГУ, 2019. – С. 153-166; Павленок Г.Д., Лелох М., Кот М., Павленок К.К., Когай С.А., Холматов А., Хужаназаров М., Шимчак К. Новые палеолитические местонахождения в долине Эрташася (Западный Тянь-Шань) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том XXVI. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2020. – С. 189–194; Павленок К.К., Когай С.А., Павленок Г.Д., Мухтаров Г., Кот М. Вариативность сырьевых стратегий населения Западного Тянь-Шаня в среднем палеолите. // Пути эволюционной географии. Материалы II Всероссийской научной конференции, посвященной памяти профессора А.А. Величко (Москва 22-25 ноября). – М., 2021 – С. 667-669; Павленок К.К., Когай С.А., Сосин П.М., Деревнина А.С., Таратунина Н.А., Петржик Н.М., Юдин И.А., Мухтаров Г.А., Турсунов С.С., Харевич В.М., Чистяков П.В. Открытие индустрии с сельгунгурскими чертами на Западном Тянь-Шане: стоянка Куксарай-2 (раскоп 1). // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том XXVIII. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2022. – С. 229-237; Павленок К.К., Когай С.А., Сосин П.М., Деревнина А.С., Таратунина Н.А., Петржик Н.М., Юдин И.А., Мухтаров Г.А., Турсунов С.С. Стоянка Куксарай-2 (раскоп 2): новые данные об индустрии с сельгунгурскими чертами в Западном Тянь-Шане. // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том XXVIII. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2022. – С. 238-245.

³¹ Сулейманов Р.Х., Мухаммадиев А. Ф. Мuzbel ўрта палеолит даври устахона-манзилгохи. // Марказий Осиё тарихи ва маданияти. (Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари). – Тошкент, 2023. – Б. 30-33.

³² Филанович М.И., Богомолов Г.И. Адылов Ш.Т., Алимов К., Баратова Л.С. Археологическое изучение городища Шаштепа // АИУз - 2000 год. Самарканд, 2001. – С. 165-170; Филанович М.И., Богомолов Г.И., Баратова Л.С. Раскопки на городище Шаштепа в Ташкенте // АИУз - 2001 год. – Ташкент, 2002. – С. 159-165.

³³ Филанович М.И., Богомолов Г.И., Ильясова С.Р. Новые данные по древней истории Ташкента // Тошкент шахрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент: Фан, 2009. – С. 52–58; Филанович М.И. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. Ташкент: Узбекистан, 2010 – С. 131-139; Uning o'zi. «Temple town» городища Мингурик в Ташкенте. // Древние цивилизации на Среднем Востоке. Археология, история, культура (Материалы международной научной конференции, посвященной 80-летию Г.В. Шишкиной). – М., 2010. – С. 91-93.

³⁴ Аскарлов А., Иномов О., Исабеков Б. Комплекс погребальных памятников “Дуланбулак” в верховьях реки Ахангарана и его изучение // Традиции Востока и Запада в античной культуре Средней Азии. Сборник статей в честь Поля Бернара. – Ташкент: Noshirlik yog'disi Press, 2010. – С. 73-83; Исабеков Б. Процесс археологического изучения долины Верхнего Ахангарана // Актуальные научные исследования в современном мире. № 3/8. – Ташкент, 2018. – С. 80-85.

³⁵ Анарбоев А.А., Баратов С.Р., Буряков Ю.Ф., Вульферт Э.Ф. Археологическая разведка и исследования по

oshirilgan tekshirish ishlari natijasida 329 ta arxeologik yodgorlik, shundan, 89 ta yangi yodgorliklar hisobga olingan³⁶. 2017–2018-yillarda so‘nggi bronza va ilk temir davriga oid manzlgohida arxeologik qazishma ishlari olib borilgan³⁷.

Birinchi bobning xulosa qismida Toshkent vohasi arxeologik yodgorliklari o‘rganilish tarixi bosqichlari umumlashtirildi. Moddiy manbalar ko‘lamining keskin kengayishi va ularning tarixiy-madaniy jarayonlarni o‘rganishdagi ahamiyatining o‘sishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Tosh, bronza va ilk temir davrlari tarixiy-madaniy jarayonlari rekonstruksiyasi**” deb nomlanadi. Ushbu bobning “*Toshkent vohasining tosh davrida o‘zlashtirishi va madaniy landshaftining rivojlanish xususiyatlari*” nomli birinchi paragrafi o‘lkaning paleolit davri masalalari yoritilgan. Ma‘lumki, o‘tgan asrda M.R. Qosimov Ko‘lbuloq makonini qazish natijasida uning uning quyi qatlamlarini (28-49) so‘nggi ashel davri bilan sanalagan edi³⁸. Ashel davri qatlamida Bryunes-Matuyama inversiyasi o‘tish davri aniqlanib, u geolog X. To‘ychiyevning mil. avv. 700 ming yillik bilan sanalashi uchun asos bo‘lgan³⁹. Makonning stratigrafiyasini qayta o‘rganish natijasida 24 ta madaniy qatlamga ajratilib, 2-10 qatlamlari OSL davrlashtirish bo‘yicha 39 ± 4 – 82 ± 9 ming yilliklar doirasida sanalangan⁴⁰. Keyinchalik quyi madaniy (23 va 24) qatlamlarini yangi lyuminesitsent davrlashtirish asosida 190–240 ming yil avvalgi davr bilan sanalagan⁴¹. Ko‘lbuloq makonining o‘zlashtirilgan davriga aniqlik kiritish uchun O‘rta Osiyo hududidagi paleolit arxeologik yodgorliklarning vujudga kelishi masalasini kompleks o‘rganish kerak.

A.P. Derevyankoning xulosasiga ko‘ra eng qadimgi odamlar mil. avv. 1 mln. yillikda Markaziy Qozog‘istondan o‘tib, mil. avv. 800 ming yillikda Oltoy o‘lkasi (Karama makoni)ga tarqalgan⁴². Unda mil. avv. 800-700 ming yillikda eng qadimgi odamlar Qozog‘istonning janubida va shuningdek, Toshkent vohasida ham yashaganligini qayd etish mumkin. Janubiy Tojikistonda V.A. Ranov o‘rgangan

железнодорожной трассе Ангрэн-Поп // АИУз - 2012 год. Вып. 9. – Самарканд, 2013. – С. 17-20.

³⁶ Ильясова С.Р., Максудов Ф.М., Вульферт Э.Ф., Нормуратов Д.Р. Рекогносцировочные работы в ... – С. 61-64; Нормуратов Д.Р.Ташкент воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар моддий маданияти (мил. avv. XIII – мил. XIII аср бошлари): Т.ф.ф.д. (PhD) автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 16.

³⁷ Максудов Ф.А., Ильясова С.Р. Куён-поселение эпохи поздней бронзы раннего железа в Ташкентском оазисе // ИМКУ. Вып. 40. – Самарканд, 2019. – С. 69-75; Ильясова С.Р., Максудов Ф.А., Хамидов О.А., Линг Мей, Вульферт Э.Ф., Нормуратов Д.Р. Раскопки на Куёне в 2018-2019 годах // АИУз – 2018-2019 года. Вып. 12. – Самарканд, 2020. – С. 29-33.

³⁸ Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней... – С. 3-43.

³⁹ Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований... – С. 3-18.

⁴⁰ Павленок К.К., Павленок Г.Д., Когай С.А., Курбанов Р.Н. Хужаназаров, Г. Мухтаров М. Первые результаты изучения каменной индустрии слоя 24 стоянки Кульбулак (по материалам раскопок 2019 года) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том XXV. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2018. – С. 195-202; Казанский А.Ю., Павленок К.К., Павленок Г.Д., Хужаназаров М., Когай С.А. Первые результаты петромагнитных измерений на стоянке Кульбулак. // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий Том XXIV – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2018. – С. 102-105.

⁴¹ Павленок Г.Д., Когай С.А., Курбанов Р.Н., Мухтаров Г.А., Павленок К.К. Появление леваллуа-пластинчатой индустрии в западной части Центральной Азии. // Международный симпозиум «Новейшие открытия в палеолите Евразии», посвященный юбилею академика А.П. Деревянко (11–13 января 2023 г. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2023. – С. 55-56.

⁴² Деревянко А.П. Три глобальные миграции человека в Евразии. Том II. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2017. – С. 278-279.

Kuldara makoni paleomagnetik tekshirish natijalari bo'yicha mil. avv. 0,8-0,9 mln. yillik bilan sanalangan⁴³. Mazkur holatda X. To'ychiyevning mil avv. 700 ming yillik bilan va M.R. Qosimovning so'nggi ilmiy ishlarida mil. avv. 500 ming yilliklar bilan sanalash tartibi haqiqatga yaqin bo'ladi va kelajakda o'z tasdig'ni topadi.

Insoniyat tarixining keyingi davri – o'rta paleolit o'ziga xos taraqqiyot bosqichi bilan tavsiflanadi. Bu davrning xronologik sanasi o'tgan asr davomida mil. avv. 100-40/35 ming yilliklar doirasida sanalib, *homo sapiens neandertalensis* tarqalgan davr sifati qaralib, ulardan *homo sapiens sapiens*, ya'ni zamonaviy qiyofadagi odamlar vujudga kelganligi to'g'risidagi ilmiy qarash hukmron bo'lgan. Lekin keyingi tadqiqotlar antropogenez jarayoni to'g'risidagi ilmiy qarashlarning o'zgarishiga sabab bo'ldi. Afrikadagi Omo, Xerto (Efiopiya), Letoli (Tanzaniya) va boshqa makonlardan topilgan *homo sapiens sapiens*larining suyak namunalari mil. avv. 200-150 ming yillik bilan sanalangan. Afrika qit'asida o'rta paleolit davri ham 300–250 ming yil avval boshlangan⁴⁴. Oltoy o'lkasidagi Denisov g'orini o'rganish natijasida neandertallar bilan bir davrda yashagan yangi tur – *homo denisovo* odamiga tegishli suyak qoldiqlari topilgan. Tadqiqotchining fikriga asosan 200-150 ming yillar avval Yevropada neandertallar, Shimoliy va Markaziy Osiyoda *denisov* odami yashagan⁴⁵. So'nggi paleoantropologik tadqiqotlar ko'ra *homo sapiens sapiens*lar mil. avv. 300/250 ming yilliklarda Afrikada shakllanib, mil. avv. 80/70 ming yillarda Yevrosiyo hududiga tarqalgan⁴⁶. Bu esa o'z navbatida o'rta va so'nggi paleolit davrlari xronologiyasining qadimiylashtirishga xizmat qiladi. Eng yangi paleogenetik ma'lumotlarga ko'ra Afrikadan tashqaridagi zamonaviy odamlarning 4 % genomasi neandertallardan o'zlashtirilgan⁴⁷. O'rta Osiyoda antropogenez jarayonini hal qilish uchun ma'lumotlar to'pilmog'da. Antropologlar Obirahmat g'or-makonining 16-qatlamidan topilgan suyaklarini neandertal va zamonaviy odam chatishishidan vujudga kelgan oraliq duragay tip, deb hisoblaydi⁴⁸. So'nggi paleolit davriga oid Dodekatim (To'daxotin) 1,2 makonlari tosh qurollari tarkibida mikrolitlar ham mavjud bo'lib⁴⁹, ularni tadqiqotchilar Yevrosiyodan topilgan eng qadimgi namunasi sifatida qarab, mikrolitlashish jarayoni so'nggi paleolit davrining ilk bosqichida shakllangan, deb hisoblaydilar⁵⁰. So'nggi paleolit davri ilk mikrolit qurollari

⁴³ Ранов В.А. Древнейшие стоянки палеолита на территории СССР. // РА. №2. – М: Наука, 1992. – С. 81-95.

⁴⁴ Деревянко А.П. Три глобальные миграции человека в Евразии. Средний палеолит и переход к верхнему в Африке и Юго-западной Азии. Происхождение человека современного типа. Том V. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2020. – С. 49.

⁴⁵ O'sha asar. – B. 58.

⁴⁶ Деревянко А.П. Верхний палеолит в Африке и Евразии и формирование человека современного анатомического типа. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН. – 2011. – С. 56.

⁴⁷ Деревянко А. П., Шуньков М. В. Развитие палеолитических традиций на Алтае и проблема становления человека современного вида. // Традиции и инновации в истории и культуре. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2004. – С. 11.

⁴⁸ Глантц М., Виола Б., Чикишева Т. Новые останки гоминидов в Узбекистане (грот Оби-Рахмат) // Грот Оби-Рахмат. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2015. – С. 75-91.

⁴⁹ Кривошапкин А.И., Милютин К.И., Новиков И.С., Исламов У.И., Мухаммадиев А.Г. Новые верхнепалеолитические стоянки в бассейне реки Пальтау (Республика Узбекистан) // ИМКУ. Вып. 35. – Самарканд, 2006. – С. 19-23; Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Харевич В.М. Индустрия стоянки Додекатим 2 (Узбекистан) Новые данные по верхнему палеолиту региона. // Вестник НГУ. Серия: История, филология. Том 8, выпуск 5: Археология и этнография. – Новосибирск: ИАЭ СО РАН, 2009. – С. 74-97.

⁵⁰ Исламов У.И., Кривошапкин А.И. Палеолит даврида Тошкент воҳаси. // Тошкент воҳаси археологияси. – Тошкент, 2008. – Б. 6.

Shimoliy Afrika hududidan topilgan bo‘lib, ular mil. avv. 30 ming yillik bilan davrlashtirilgan⁵¹. Bu bevosita mikrolitlashish mahalliy ildizga ega ekanligidan dalolat beradi. Mazkur jarayon mezolit davri Qo‘shilish makoni tosh qurollari tipologik jihatdan so‘nggi paleolit davriga oid bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ular epipaleolit masalasi Toshkent vohasi yodgorliklarida namoyon bo‘lishini ham anglatadi.

Mezolit davriga tegishli yodgorliklarning soni cheklangan. Qo‘shilish makoni mezolit (mil. avv. X–IX ming yilliklar) davriga oid madaniy qatlamli yagona yodgorlik sanaladi. Bu yerdan topilgan yosh qoramol suyagini paleozoolog R.K. Kambariddinov xonakilashtirilgan hayvonga tegishli, deb hisoblagan⁵². Bu davrda qoramolni xonakilashtirish qo‘y va echki qo‘lga o‘rgatilgan ilk ishlab chiqarish markazi bo‘lgan Yaqin Sharqda ham kuzatilmaydi. Toshkent vohasida neolit davriga oid madaniy qatlamli yodgorliklar uchramaydi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Bronza va ilk temir davrlari tarixining rekonstruksiyasi masalalari”*, deb nomlanadi. Bronza davrida Yevrosiyoning janubiy mintaqalarida urbanizatsiya va davlatchilik vujudga kelgan. Ushbu jarayonlar O‘rta Osiyoning janubida ham sodir bo‘lgan. Bu davrda Yevrosiyoning shimoliy qismida, xususan, Toshkent vohasida chorvachilik xo‘jaligi rivojlangan. Vohada so‘nggi bronza davriga oid yodgorliklar (Serkali va Quyun), dafn inshootlari va tasodifiy topilmalar o‘rganilgan. Bu yerdagi yodgorliklarni Ye.Ye. Kuzmina Srubnaya madaniyatining so‘nggi bosqichi va Andronovo madaniyatining Fedorov bosqichlariga ajratgan⁵³. Quyun manzilgohining madaniy qatlamlari Andronovo va Burgulik madaniyatiga oid⁵⁴. So‘nggi bronza davri Andronovo madaniyatiga oid madaniy qatlam mil. avv. XIV asrning oxiri – XIII asrning boshlari bilan sanalangan⁵⁵. Bu madaniyatga oid yodgorliklar asosan Toshkent vohasining tog‘ va tog‘ oldi hududlarida tarqalgan. Ularning asosiy xo‘jalik shakli chorvachilik bo‘lgan va bronza metallurgiyasi rivojlangan.

Burgulik madaniyati bosqichlari va xronologiyasini A.I. Terenojkin, Yu.F. Buryakov, X. Duke, M.I. Filanovich, S.R. Baratovlar o‘rgangan. X. Duke mil. avv. IX-VII asrlar bilan sanalagan⁵⁶. Yu.F. Buryakov Burgulik I mil. avv. IX-VII asrlar, Burgulik II mil. avv. VI-IV asrlar bilan davrlashtirish tartibi qabul qilingan⁵⁷. Hozirgi paytda Burgulik madaniyati mil. avv. XIII asrga qadimiylashtirgan⁵⁸. X. Duke

⁵¹ Belfer-Cohen A., Goring-Morris N Why Microliths? Microlithization in the Levant. // Archeological Papers of the American Anthropological Association. Number 12. Arlington, Virginia, 2002. – P. 57-68.

⁵² Исламов У.И. Мезолитическая стоянка Кушилиш под Ташкентом // ОНУ. Вып. 7. – Ташкент: Фан, 1970. – С. 54-57.

⁵³ Кузьмина Е.Е. Арий-путь на юг. – М.-СПб: Летний сад, 2008. – С. 61-62.

⁵⁴ Максудов Ф.А., Ильясова С.Р Куюн-поселение эпохи... – С.69-75; Нормуродов Д.Р. Тошкент воҳасининг қадимги ... 2020. – Б. 16.

⁵⁵ Ильясова С.Р. Куюн – памятник Бургулюкской культуры в Ташкентской области. // Культуры Азиатской части Евразии в древности и средневековье. Материалы Международной научной конференции, посвященной 80-летию со дня рождения и 50-летию научно-педагогической деятельности проф. Ноны Армансовны Аванесовой. – Самарканд, 2021. – С. 88-93.

⁵⁶ Дукe X. Туябугузские поселение Бургулюкской культуры. – Ташкент. 1982. – С. 63

⁵⁷ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы города и городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 69-70.

⁵⁸ Дукe X., Баратов С.Р.Бургулик маданияти. // Тошкент воҳаси археологияси. – Тошкент, 2008. – С. 13; Ильясова С. Р. Куюн – памятник Бургулюкской... – С. 88-93.

Ohangaron daryosining chap sohilidagi manzilgohning (Manzilgoh 1) uch tomondan xandak va mudofaa devori bilan o‘rab olinganligini qayd etgan. Tadqiqotchi manzilgohni mil. avv. IX-VIII asrlarga oid shakllanayotgan shahar sifatida tavsiflagan⁵⁹. Bu davrda hatto O‘rta Osiyoning janubiy o‘troq dehqonchilik markazlarida ham shaharlarning shakllanishi kuzatilmaydi. Burgulik madaniyatiga oid makonlardan topilgan suyaklarning asosiy qismi qoramollarga, keyingi o‘rinlarda kichik tuyoqli chorva mollari va otlarga tegishli bo‘lgan. Shunga ko‘ra Burgulik madaniyati (Burgulik I) egalari xo‘jaligida chorvachilik yetakchilik qilib, ular ko‘proq qoramol boqqan. Dehqonchilik esa yordamchi xo‘jalikni tashkil etgan. Metallsozlik rivojlangan.

Burgulik madaniyatining ikkinchi bosqichi (Burgulik II mil. avv. VI-III asrlar) xronologiyasi ham munozarali masala hisoblanadi. Mil. avv. VIII/VII asrda Osiyoning sharqiy qismidan ko‘chib kelgan ko‘chmanchi chorvador qabilalar mahalliy aholi bilan qorishib, saklar madaniyatini yaratgan. Toshkent vohasida saklar madaniyatiga oid kam sonli yodgorliklari saqlangan.

Ikkinchi bobning xulosa qismida Toshkent vohasining tosh, bronza va ilk davrlari antropogen o‘zlashtirilishi xulosalangan va kulturogenezi, madaniy-iqtisodiy hayoti qisqacha tahlil qilingan.

Uchinchi bob **“Arxaik va antik davrlari tarixiy-madaniy jarayonlarini o‘rganishda yozma hamda arxeologik manbalarning ahamiyati”**, deb nomlanadi. Ushbu bobning *“Kaxxa, Yaksart orti saklari, daxlar va Qang‘ davlati tarixiy geografiyasi masalalari”*, nomli birinchi paragrafida chorvador qabilalar tarixi aks etgan. Ko‘chmanchi chorvadorlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar “Avesto”, qadimgi fors, yunon-rim va xitoy manbalarida saqlangan. Ushbu yozma manbalar V.A. Abayev, I.Ya. Bichurin (Iakinf), N.V. Kyuner, A.P. Pyankov, E.I. Vaynberg, A. Xo‘jayevlarning ilmiy nashrlari orqali ma‘lum. Avestoda Danay-Tanaisning ilk chorvador xalqlar *tur* nomi bilan keltirilgan. “Ardivisur Yasht”da Eron sarkardasi Tusning ko‘chmanchi Kaxxa yurtiga qilgan yurishi bayon qilingan. S.P. Tolstov Kaxxa Xorazm hududida joylashganligi to‘g‘risida fikrni bildirgan⁶⁰. B.A. Baytanayev Firdavsiyning “Shoxnoma”sida keltirilgan Kaxxa toponimini Aris vohasidagi Juvonto‘be manzilgohi bilan lokalizatsiya qilgan⁶¹. Juvonto‘be manzilgohi milodiy I asrga oid⁶² bo‘lib, Avesto davriga mos kelmaydi. Qadimgi fors manbalarida ko‘chmanchi chorvador qabilalar umumiy nom bilan *Saka*, deb atalgan. Ularning alohida guruhlari: saka xaumavarka (*xaoma tayyorlovchi saklar*), saka tigraxauda (*cho‘qqili bosh kiyim kiygan saklar*) saka-tiay-paradarayya (*dengiz orti saklari*) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar saqlangan. Shuningdek, manbalarda “so‘g‘d orti saklari” va amurgiya saklari ham keltirilgan⁶³. Ulardan saka tigraxaudalarni tadqiqotchi olimlar Choch, Tyanshan va Yettisuv hududlarida yashagan, deb hisoblaydilar⁶⁴. Yunonlar ko‘chmanchi hayot tarzini yuritgan barcha chorvador xalqlarni skiflar, deb atagan.

⁵⁹ Дуке Х. Туябугузская поселение бургулюкской... – С. 57-73.

⁶⁰ Толстов С.П. Древний Хорезм ... – С. 10.

⁶¹ Байтанаев Б.А. Древний и средневековый Испиджаб. АДД. – Алматы, 2008. – С. 5-40.

⁶² Подушкин А.Н. Арисская культура Южного Казахстана IV в до н.э. VI в. н.э. – Туркестан, 2000. – С. 17.

⁶³ История Узбекистана в источниках. // Составитель Лунин Б.В. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 31-38.

⁶⁴ Байпаков К.М. Древняя и средневековая ... – С. 118.

Forslar barcha skiflarni saklar deb atagan⁶⁵. R.X. Suleymanov Beruniy va Qoshg'ariy asarlarida skiflarni "iskitlar", nomi bilan atalib, qadimgi turkiy xalqlar bo'lganliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etgan⁶⁶.

Quyi Sirdaryodagi Shimoliy Tagisken qabr-qo'rg'onlar chorvador aholining eng qadimgi yodgorligi sanaladi⁶⁷. Undan topilgan arxeologik ashyolar Karasuk madaniyati namunalari bilan bir xil⁶⁸. Karasuk madaniyati aholisi antropologik jihatdan mo'g'il alomatiga ega yevropyoid irqiga mansub kishilar bo'lgan⁶⁹. O'rta Osiyoning shimolida mo'g'il irqiy belgilar mil. avv. VII-VI asrlar paydo bo'ladi⁷⁰. V.P. Alekseyev, I.I. Goxmanlar ushbu ma'lumotga asoslanib, saklar O'rta Osiyoga sharqdan ko'chib kelgan deb, hisoblaydi⁷¹.

R.X. Suleymanov yozma manba (Avesto, Shohnoma) ma'lumotlariga asoslanib, Sirdaryo janubiy o'troq dehqon aholisi bilan shimoliy dasht ko'chmanchilarining chegarasi bo'lganligini qayd etgan⁷². Gerodot Shimoliy Qora dengiz dashtlariga skiflar mil. avv. 720-yilda G'arbiy Turkistondan kelib joylashib, keyin mil. avv. 623-yilda Midiyani bosib olganligini qayd etgan⁷³. Mazkur ma'lumotlar bu davrda Mo'g'iliston va Sharqiy Turkistonda yashagan turkiy xalqlar O'rta Osiyo hududlariga kelib joylashganligi to'g'risidagi xulosani keltirib chiqaradi.

Sirdaryo orti saklari to'g'risida yunon-rum mualliflari (Dionisiy Periegit, Strabon, Pliniy, Ptolemey) yozgan. Saklarning kam sonli yodgorliklarida Jomanto'qay qabristonining 1-qabr-qo'rg'oni va Burchmullo qabr-qo'rg'onida⁷⁴ o'z aksini topgan. Saklarning etnik mansubligi va tili masalasida yagona fikr mavjud emas. Ko'pchilik xorijlik, ayniqsa, rossiyalik mutaxassislar: V.A. Abayev⁷⁵, M.I. Dyakonov⁷⁶, I.V. Pyankov⁷⁷ saklarni eroniy xalqlar bo'lgan, deb hisoblaydi. K. Shoniyozov, A. Asqarovlar esa saklarni turkiy xalq bo'lgan, deb hisoblaydilar. Gerodotning ma'lumotiga ko'ra saklar yetti xil tilda so'zlashgan⁷⁸. Saklarga oid barcha ma'lumotlarni atroflicha tahlil qilgan holda Yaksart (Sirdaryo) orti saklari turkiy tilli xalqlar bo'lib, ularning ayrimlari forsiy tilda gaplashgan.

Qadimgi fors va antik davri manbalarida daxlar to'g'risida ham ma'lumotlar saqlangan. Gerodot daxlarni Kir hukmronligi davrida yashagan ko'chmanchi qabila

⁶⁵ Геродот. История в девяти книгах. // Пер. и прим. Г.А. Стратановского. Кн. VII. – Л.: Наука, 1972. – С. 333.

⁶⁶ Сулейманов Р.Х. Роль кочевников в ... – С.45.

⁶⁷ Байпаков К.М. Древняя и средневековая... – С. 109-115.

⁶⁸ Байпаков К.М., Таймагамбетов Ж.К. Археология Казахстана (Учебное пособие для студентов высших учебных заведений). – Алматы: Қазақ университеті, 2006. – С. 88.

⁶⁹ Рыкушина Г.В. Палеоантропология карасукской культуры. – М., 2007. – С. 87.

⁷⁰ Трофимов Т.А. Приаральские саки (краниологический очерк). // МХЭ. Вып. 6. – М.: Наука, 1963. – С. 221-235; Ходжаев Т.К. К палеоантропологии древнего Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1980. – С. 9; Итина М.Д., Яблонский О.В. Саки Нижней Сырдарье (по материалам могильника Южной Тагискен). – М.: РОСПЭН, 1997. – С. 80.

⁷¹ Алексеев В.П., Гохман И.И. Антропология азиатской части СССР. – М.: Наука, 1984. – С. 70-71.

⁷² Suleimanov R.H. Traces of the Dahae and Sarmatian Cultural Legacy in Ancient Turan and Old Rus. // Археология, этнография и антропология Евразии Том 49, № 3. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2021. – Р. 60.

⁷³ Геродот. История в девяти ... – С. 42.

⁷⁴ Максимова А.Г. и др. Древности Чардары (Археологические... – 180; Заднепровский Ю.А. Степная полоса Азиатской части СССР в скифо-сарматское время. – М.: Наука, 1992. – С. 103, табл. 37.

⁷⁵ Абаев В.И. К вопросу о прародине и древнейших миграциях индоиранских народов. // Древний Восток и античный мир. – М.: Наука, 1972. – С. 35-37.

⁷⁶ Дьяконов М.И. История Мидии от древнейших времен до конца IV в. до н.э. – М.-Л.: Наука, 1956. – С. 147.

⁷⁷ Пьянков И.В. Средняя Азия и ... – С. 423.

⁷⁸ Геродот. История в девяти... – С. 177.

sifatida tilga olgan⁷⁹. Mutaxassis olimlar uni Avestoda uchraydigan *daha* bilan bitta qabila, deb hisoblaydi. Ular Kserksning bitiklarida saklar bilan birga keltirilgan⁸⁰. Strabon daxlarning uchta guruhini (parmlar, ksanfiylar va pissurlar) qayd etadi⁸¹. Daxlar yashagan hududlarlar I.V. Pyankov, B.A. Litvinskiy, V.A. Gaibov, G.A. Koshelenko, A.X. Balaxvansyev kabi mutaxassislarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan⁸². B.I. Vaynberg va L.M. Levina Chirikrabot daxlar madaniyati, degan xulosaga kelgan⁸³.

Antik davrida Choch Qang' davlati tarkibiga kirgan. Qang' (Qang) atamasi dastlab Xitoy tarixchisi Sima Szyanning (mil. avv. 160/161-42/43 yy.) "Shitszi" (*Tarixiy xotiralar*) asarida uchraydi. Unda Qang' davlati Davanning shimoli-g'arbda joylashgan ko'chmanchi davlat sifatida qayd etilgan⁸⁴. "Syanxanshu"da Qang' davlatiga beshta mulklik (Yuyeni, Suse, Fumu, Gi, Yuyegyan) tobe bo'lganligi va hukmdori Loyuyeni mamlakatining Bityan shahrida yashaganligi keltirilgan⁸⁵. N.V. Kyuner Bityan shahri Tayanchji ko'li bo'yida joylashganligini qayd etgan⁸⁶. Arxeologlar Bityan shahri Qanqa manzilgohi o'rnida bo'lgan, deb hisoblaydilar⁸⁷. Qang' davlati va mulkliklari S.P. Tolstov, A.N. Bernshtam, K.Sh. Shoniyozov, K.M. Baypakov, E.I. Vaynberg kabi mutaxassislar tomonidan lokalizatsiya qilgan⁸⁸. B.A. Litvinskiy fikriga ko'ra Qang' davlati Qovunchi madaniyatining ilk bosqichi (Qovunchi I) hisoblanib, ularni So'g'd orti saklarining avlodlari bo'lgan, deb hisoblaydi⁸⁹. Bu Qadimgi Chochning antik davri madaniyati shakllanish pallasi hisoblanadi. Umuman Qang' davlati Qovunchi madaniyati shakllangan davrda paydo bo'lib, sanasi mil. avv. III asrning o'rtalaridan kech emas. Qang' Sirdaryo havzasi hududida dehqonchilik va chorvachilik xo'jalik shaklini yuritgan konfederativ davlat bo'lgan. III asrning oxirida Qang' konfederatsiyasi parchalanib, uning o'rnida mustaqil davlatlar, xususan, Choch davlati vujudga keladi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi "*Toshkent vohasida antik davrida sodir bo'lgan migratsiya jarayonlari tarixi*", deb nomlanadi. Unda So'g'd va ellin madaniyatlarining ta'siri, Qovunchi madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishi masalalari yoritib berilgan. Sirdaryo (Yaksart) ortiga yunonlarning O'rta Osiyoga

⁷⁹ O'sha asar. – B. 42.

⁸⁰ Струве В.В. Этюды по истории Северного Причерноморья, Кавказа и Средней Азии. – Л: Наука, 1968. – С. 119.

⁸¹ Страбон География в 17 книгах. – М: Наука, 1964. – С. 483.

⁸² Пьянков И.В. К вопросу о ... – С. 115-130; Литвинский Б. А. Древние кочевники «Крыши Мира». – М: Наука, 1972. – С. 173; Литвинский Б.А. Средняя Азия в селевкидское время // История таджикского народа. Том 1. – Душанбе, 1998. – С. 328–330; Гаиров В. А., Кошеленко Г. А. Некоторые источниковедческие проблемы истории ранней Парфии. // ВДИ. № 3. – М: Наука, 2009. – С. 123.

⁸³ Вайнберг Б.И., Левина Л.М. Чирикрабадская культура. М., 1993. –С. 91.

⁸⁴ Бичурин И.Я. (Иакинф). Собрание сведений о ... – С. 150, 152.

⁸⁵ O'sha asar. – B. 184-188.

⁸⁶ Кюнер Н.В. Китайские известия о ... – С. 128-131.

⁸⁷ Филанович М.И. Ташкент: Становление города и городской культуры. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 174-175.

⁸⁸ Толстов С.П. Древний Хорезм... – С. 10; Бернштам А.Н. Очерк истории гуннов ... – С 84; Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш ... – Б. 118; Байпаков К.М., Воякин Д. Выдающиеся археологические памятники Казахстана. – Алматы: Асыл Сөз, 2014 – С. 90; Вайнберг Э.И. Этногеография Турана в ... – С. 282.

⁸⁹ Литвинский Б.А. Джунский могильник и некоторые аспекты кангюйской проблемы. // СА. № 2. – М: Наука, 1967. – С. 29-37; Унинг о'зи. Кангюйско-сарматский фарн (к историко-культурным связям племён южной России и Средней Азии). – Душанбе: Дониш, 1968. – С. 27.

bosqini davrida So‘g‘d madaniyati yoyilgan⁹⁰. Selevkiylar davrida ellin madaniyati tarqalgan⁹¹. Mil. avv. III asrning Chirikrabot madaniyati inqirozga uchragandan keyin Toshkent vohasiga ko‘chib kelgan daxlar Qovunchi madaniyatiga asos solgan. Bu davrda Sirdaryo havzasida Qang‘ davlati vujudga keladi. B.A. Litvinskiy Qovunchi I majmuasini Qang‘ davlatining ilk bosqichi, deb hisoblab, saklar davlati sifatida qaraydi⁹². Qovunchi I davrida o‘troq chorvachilik va lalmi dehqonchilik ustunlik qilgan. Qang‘ davlati qudratining kuchaygan davrida sug‘orma dehqonchilikning ahamiyati o‘sgan. Qovunchi madaniyatining birinchi bosqichda shaharlar uch yoki ikki qismdan iborat bo‘lib, atrofi mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Ikkinchi bosqichida esa aholi tog‘li hududlarni o‘zlashtiradi⁹³. Bu davrda vohada ijtimoiy munosabatlar chuqurlashib, iqtisodiy jihatdan rivojlangan, alohida hududlarning moddiy madaniyatida ayrim farqlar paydo bo‘ladi.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi “*Shaharsozligi va me‘morchiligi*”, deb nomlanadi. Selevkiylar sarkardasi Demodam Yaksartdan (Sirdaryo) o‘tib, qal‘a qurdirgan. Uni Yu.F. Buryakov Qanqa manzilgohi bilan lokalizatsiya qilgan⁹⁴. Qanqaning birinchi shahristoni ellin me‘morchilik usulida qurilgan ikki qator mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Yarim aylana shaklli burjlar bilan kuchaytirilgan. Devorning tashqi tomonida chuqur xandak mavjud⁹⁵. Shahristonning shimoli-sharqiy tomonida ark joylashgan bo‘lib, bu davrga oid madaniy qatlami o‘rganilmagan.

Qovunchi madaniyati shakllangandan keyin shaharsozlik yanada rivojlangan. Bu davrda Qanqa, Qovunchitepa, Shoshtepa Changtepa va Niyozboshtepa⁹⁶ manzilgohlari o‘rnida yangi shaharlar paydo bo‘lgan. Tarhi aniq rejaga asoslangan Shohruxiya va Oqto‘be 2 o‘rnida faoliyat yuritgan qal‘alar ham mana shu davrda vujudga kelgan⁹⁷. Qovunchi II davrida Mingo‘rik, Kindiktepa, Qulota, Oqqo‘rg‘on manzilgohlari o‘rnida shaharlar qaror topgan. Toshkent vohasi shaharsozligi taraqqiyotida Qoramazor kon zahiralari va xalqaro savdo yo‘li muhim ahamiyatiga ega bo‘lgan.

Toshkent vohasining antik davr qurilish inshootlari dastlab So‘g‘d va ellin me‘morchilik usulida qurilgan. Qovunchi madaniyatining ilk bosqichida esa Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazm me‘morchilik an‘analarining ta‘siri kuzatiladi. Jamoatchilik (saroy va ibodatxona) imoratlarining qoldiqlari Oqto‘be 2, Shoshtepa va

⁹⁰ Сулейманов Р.Х., Байтанаев Б.А. Стратиграфия городища Шымкент: возникновение и развитие города // Древняя и средневековая урбанизация Евразии и возраст города Шымкент. Материалы научно-практической конференции. – Шымкент, 2008. – С. 22-35.

⁹¹ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы... – С. 106.

⁹² Литвинский Б.А. Джунский могильник и ... – С. 29-37; Uning o‘zi. Кангюйско-сарматский фарн... – С. 27.

⁹³ Аскаров А., Иномов О., Исабеков Б. Комплекс погребальных памятников... – С. 73-83; Исабеков Б.И. Юкори ва Ўрта Охангарон водийсининг қадимги ва ўрта асрлар даври маданияти”. Т.ф.ф.д. (PhD) автореф. – Тошкент, 2022. – Б. 13-14.

⁹⁴ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы... – С. 106.

⁹⁵ Абдуллаев К.А. Археологическое изучение городища... – С. 128-154.

⁹⁶ Буряков Ю.Ф., Ростовцев О.М. Работы Ташкентской области. // АО-1971 г. – М: Наука, 1972. – С. 523-524; Филанович М.И. Ташкент: зарождение города и развитие городской культуры в древности и средневековье. Ташкент шахрининг жаҳон цивилизацияси тараққийотида тутган ўрни. // Ташкент шахрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент: Фан, 2009. – С. 47; Буряков Ю.Ф. Раскопки городища Чангтепе в Ташкентском оазисе. // ИМКУ. Вып. 14. – Ташкент: Фан, 1978. – С.103-113; Буряков Ю.Ф., Дадабаев Г. Памятники античного времени в Ташкентском оазисе. // ИМКУ. Вып. 10. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 40.

⁹⁷ Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 78-80.

Mingo'rik manzilgohlarida saqlangan. Oqto'be 2 saroyi (tomonlari 24x18,5 m) xoch shaklidagi beshta xonli majmuadan iborat bo'lib, markazidagi zal (3,6x3,6 m) atrofidagi xonalar bilan bog'langan. Shoshtepa ibodatxonasi xoch shaklda qurilib, atrofi aylana mudofaa devori bilan o'rab olingan. M.I. Filanovich ibodatxona qurilishda Tagisken, Chirikrabort va Qo'yqirilganqal'a diniy inshootlari bilan umumiylikni qayd etib, mil. avv. II–I asrlar bilan sanalagan⁹⁸. Mingo'rik manzilgohining arkida ham xochsimon shaklli ibodatxonaning (tomonlari 15x14,5 m) o'rni ochilgan. Uning atrofi mudofaa devori bilan o'ralib, burjlar bilan kuchaytirilgan⁹⁹. M.I. Filanovich inshootni Buxoro vohasidagi III–VI asrga oid Setaloq ibodatxonasi bilan o'xshashligini qayd etib, I–III asrlar asrlar bilan sanalagan. Tadqiqotchining fikriga ko'ra Mingo'rik Qang' davlatining I asrdagi quyosh-olov ibodatxonasi hisoblangan¹⁰⁰. Toshkent vohasining antik davri qurilish inshootlari dastlab, ellin-so'g'd sinteziga asoslangan qurilish usulida, Qovunchi I davrida esa Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazm me'morchiligi madaniy ta'sirida rivojlangan. Umuman Toshkent vohasi antik davri qurilishi va me'morchiligi O'rta Osiyoning qadimgi davriga xos an'analari asosida taraqqiy etib borgan.

Ushbu bobning xulosasida Toshkent vohasida arxaik davrida (Burgulik II) faoliyat yuritgan chorvador saklar madaniyati ko'rib chiqilgan. Antik davrining ilk bosqichida so'g'd-ellin madaniyati an'alarining ta'siri kuzatilganligi qayd etilgan. Mil. avv. III asrning ikkinchi yarmida Qovunchi madaniyati shakllangan va Qang' konfederativ davlati vujudga kelgan. Bu davrda Toshkent vohasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan.

XULOSA

1. XIX asrning 1965 – 1917-yillarda Qadimgi Chochning arxeologik merosi yodgorliklarida tashkil etilgan tadqiqotlar havaskor-o'lkashunos xarakteriga ega bo'lib, dastlabki arxeologik bilimlar shakllangan. XX asrning birinchi yarmigacha olib borilgan arxeologiya tadqiqot ishlari o'lkaning qadimgi davr tarixi va madaniyatiga doir ma'lumotlar bazasini kengaytirgan. XX asrning 50-yillardan boshlab stratigrafik qazishmalar ko'lami kengayib, qadimgi davr tarixi yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan. 1991-yildan keyingi amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar zamonaviy va tabiiy fan yutuqlaridan keng foydalanilgan holda tashkil etilgan. Ushbu usullar O'zbekiston hududida sodir bo'lgan tarixiy-madaniy jarayonlarni chuqur o'rganish imkoniyatini yaratgan.

2. Yangi arxeologik ma'lumotlar asosida Toshkent vohasining eng qadimgi odamlar tomonidan o'zlashtirilishi, paleolit davri madaniyatlarining genezisi va xronologiyasi aniqlandi, o'lkaning antropogenez jarayonidagi o'rni masalasiga oydinlik kiritildi. Mezolit davri tosh qurollarida mikrolitlashish jarayoni mahalliy ildizga ega bo'lib, so'nggi paleolit davrida shakllanganligi asoslab berildi.

3. So'nggi bronza davriga oid o'rganilgan mavjud arxeologik yodgorliklar

⁹⁸ Филанович М.И. Ташкент: зарождение и... – С. 164-176.

⁹⁹ Филанович М.И. и др. Новые данные по... – С. 52–58.

¹⁰⁰ Филанович М.И. Древняя и средневековая история Ташкента... – С. 131-139; Uning o'zi. «Temple town» городища... – С. 91-93.

(qabr inshootlari, makonlar va tasodifiy topilmalar) to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashtirilib, ularning ma'lum tizimi yaratildi va ularning xaritasi tuzildi. Bronza davri yodgorliklari asosida Toshkent vohasining tog' va tog' oldi yerlarida Yevrosiyoning shimoliy dasht hududlariga xos chorvadorlar madaniyati tarqalganligi aniqlandi.

4. Janubdan Yaz I tipidagi naqshli sopollariga ega bo'lgan madaniyat migratsiyasi natijasida Toshkent vohasida ilk temir davrida (mil. avv. XIII asr) burgulik madaniyati shakllangan. Burgulik madaniyati Toshkent vohasi tog'li hududlarigacha bo'lgan yerlariga tarqalib, ularning xo'jaligining asosini o'troq chorvachilik va lalmi dehqonchiligi tashkil etganligi geomorfologik kuzatishlar va osteologik materiallar asosida aniqlandi. Chorvachilik xo'jaligida qora mollar yetakchi o'rinni egallaganligi osteologik materiallar bilan dalillandi.

5. Mil. avv. VIII asrda Sirdaryo orti yerlariga, xususan, Toshkent vohasiga Osiyoning sharqiy qismidan (Sharqiy Turkiston, Oltoy) qadimgi yozma manbalarda saklar (skiflar) nomi bilan tilga olingan ko'chmanchi chorvador xalqlar ko'chib kelib joylashganligi moddiy va yozma manbalar hamda payeoantropologik materiallar orqali asoslab berildi. Ularning moddiy madaniyati namunalari qabr inshootlarida qisman saqlangan. Saklar doimiy ko'chib yurish uchun qulay bo'lgan yengil uylar: chodir va o'tovlarda yashaganligi sababli ularning yashash imoratlarining qoldiqlar bizgacha yetib kelmagan. Ammo ularning asosiy qabristonlari shimolda Janubiy Qozog'iston va Etsuv hududidada joylashgan.

6. Mil. avv. IV asrlarning oxirgi choragidan Sirdaryo ortiga, ya'ni Toshkent vohasiga Makedoniyalik Aleksandr hujumidan qochgan aholi ko'chib kelib, bu yerda So'g'd madaniyati an'alarini olib kelgan. Selevkiylar sarkardasi Demodam mil. avv. III asrning boshlarida Yaksart ortiga qilgan yurishlari davrida Toshkent vohasida qal'a barpo etgandan keyin bu yerda ellinizm madaniyati an'analari tarqalgan.

7. Sirdaryoning quyi oqimi o'zanlarida faoliyat yuritgan dehqon-chorvador (sak-dax) qabilalarning bir qismi daryo o'zanlarining suvsizlanishi sababli Toshkent vohasiga kelib joylashib, ular Qovunchi madaniyati asos solgan. Qovunchi madaniyati shakllangan davrda Qang' davlati ham paydo bo'lib, ularning asoschisi daxlar bo'lgan. Qang' konfederatsiya tarkibiga kirgan alohida mulkliklar qadimgi dehqonchilik vohalari hisoblangan. Davlat iqtisodining asosini dehqonchilik-chorvachilik xo'jaligi tashkil etib, taraqqiyotning ikkinchi bosqichida to'liq sug'orma dehqonchilik xo'jaligiga o'tilgan.

8. Sirdaryo havzasida, xususan, Toshkent vohasida yashagan saklar, daxlar va Qang' davlati aholisi turkiy va eroniy xalqlar bo'lganligi eng qadimgi xitoy, yunon-rim yozma manba ma'lumotlari, Sirdaryo havzasida o'rganilgan paleoantropologik materiallar va ularda aniqlangan dafn udumlariga oid moddiy ashyolar orqali asoslab berildi.

9. Toshkent vohasining shahar madaniyati dastlab O'rta Osiyoning janubiy o'troq dehqonchilik rayonlari (Baqtriya, So'g'd) urbanizmi va ellin qurilish an'analari asosida shakllangan. Toshkent vohasida Qovunchi I davrida so'g'd-ellin elementiga ega bo'lgan shaharsozlik madaniyati an'analari Xorazm va Sirdaryoning quyi oqimi hududi me'morchiligi uyg'unligida taraqqiy etganligi aniqlandi. Qovunchi

madaniyatining ikkinchi bosqichida shaharsozlik mahalliy hududga xos yoʻnalishida rivojlanib, ularning taraqqiyotida Qurama togʻ-kon zahasi va Buyuk ipak yoʻlining ahamiyati yuqori boʻlganligi aniqlandi.

10. Toshkent vohasining antik davri aholisi diniy qarashlariga oid maʼlumotlar Shoshtepa, Mingoʻrik va Qanqa manzilgohlarida oʻrganilgan ibodatxonalarda oʻz aksini topgan. Ibodatxona majmualaridan topilgan moddiy manbalarga koʻra aholining diniy eʼtiqodi quyosh-olov kulti va ajdodlar kulti boʻlganligi aniqlangan va bu maʼlumotlar qadimgi yozma manbalar asosida tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari yuzasidan quyidagi quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** ilgari surildi:

1. Paleolit davri makonlarning cheksiz davrini aniqlash maqsadi qayta qazishmalar tashkil etish va fanlararo (multidissiplinar) tadqiqotlarni amalga oshirish.

2. Toshkent vohasining koʻchmanchi chovador qabilalarining oʻtroqlashish jarayoni va ularning oʻtroq dehqon aholisi bilan oʻzaro aloqadorligi masalalarini alohida mavzu sifatida kengroq oʻrganish.

3. Toshkent vohasi arxeologiya yodgorliklarini oʻtmish madaniy merosi sifatida kelajak avlod uchun saqlab qolish va muzeylashtirish maqsadida ularni restavratsiya va konservatsiya qilish hamda turizmni rivojlantirish maqsadida ularning tarixiy-madaniy parklarini yaratish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЦЕНТР АРХЕОЛОГИИ

ИБРАГИМОВ РАХМОН ЗИЁДУЛЛАЕВИЧ

**ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕКОНСТРУКЦИЯ ТАШКЕНТСКОГО ОАЗИСА
ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА (ПО АРХЕОЛОГИЧЕСКИМ МАТЕРИАЛАМ)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за B2023.2.PhD/Tar1407

Диссертация выполнена в Национальном центре археологии.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице (www.ik-tarix.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz)

Научный руководитель:

Сулейманов Рустам Хамидович
доктор исторических наук, профессор

Официальные рецензенты:

Атаходжаев Азимхужа Музаффарович
доктор исторических наук, доцент

Эгамбердиева Нигора Азатовна
доктор исторических наук (DSc)

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней за номером DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 при Национальном Университете Узбекистана «29» 03 2024 года в 14⁰⁰ часов (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Мирзо Голиба, исторический факультет Национального университета Узбекистана, 1-этаж, 110-аудитория. Тел.: +99871 227-12-24; факс: +99871 246-53-21, +99871 246-02-24; E-mail: nauka@nuu.uz Национальный университет Узбекистана).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрировано под номером 21). (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Университетская, дом-4. Главный корпус. Тел.: +99871 236-46-55; факс: +99871 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «15» 03 2024 года.
(протокол реестра за номером 4 от «14» 03 2024 года)



Х.Э. Юнусова
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней,
д.и.н., профессор

Ж.Э. Тогаев
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней,
д.ф.и.н. (PhD)

Н.У. Мусаев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и необходимость темы диссертации. В процессе глобализации в XXI веке, одной из важных задач стало изучение и реконструкция древней истории человеческого общества, в частности этнокультурных, социально-экономических процессов на основе материальных и письменных источников. По этой причине в мире возросло внимание к историческим реконструкциям эпохи древности. Тот факт, что международная организация ЮНЕСКО уделяет большое внимание «Изучению истории и культурного наследия Ташкента», также свидетельствует об актуальности нашей темы.

Мировое сообщество уделяет особое внимание значению Центральной Азии как одного из центров древней цивилизации. Наши и ведущие научно-исследовательские учреждения зарубежных стран проводят масштабные археологические исследования на археологических памятниках Центральной Азии. Особое внимание уделяется изучению истории каменного века, социально-экономических и этнокультурных процессов эпохи палеометалла, вопросов древней урбанизации и государственности. В частности, в качестве приоритетных направлений изучаются процесса антропогенного освоения земель Ташкентского оазиса в каменном веке, генезис культур, особенности антропогенного освоения в бронзовом, раннем железном веках и архаичности, этнокультурные и урбанизационные процессы в древности.

За период независимости Республики Узбекистан в стране достигнут значительный прогресс области науки наряду с социально-экономическим развитием. В частности, положительные результаты получены в исследовании Ташкентского оазиса, который является важной частью нашей страны. Соответственно, наша тема призвана реконструировать историю региона на основе сравнительного анализа материалов, собранных за прошедший период, с материалами, полученными в годы независимости. Изучение вопросов антропогенного освоения Ташкентского оазиса в первобытный период, генезис культур каменного века, этнокультурных процессов эпохи палеометалла, культуры скотоводческих племен в архаический период, миграционных процессов в античности, место оазиса в системе конфедерации Кангюй, городскую культуру и социально-экономических проблем, как комплексное исследование на основе археологических и письменных источников, является одной из важных задач истории Узбекистана.

Данная научно-исследовательская работа в определенной мере служит выполнению задач, определенных в правовых документах, изданных правительством нашей республики, в частности, Указа Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»¹⁰¹, Постановления

¹⁰¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года. № УП-60, «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы». <https://lex.uz/docs/5841077>

Президента ПП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», Постановления Президента Республики Узбекистан от 19 декабря 2018 года ПП-4068 «О мерах по коренному совершенствованию деятельности в сфере охраны объектов материального культурного наследия», Постановления Кабинета Министров № 792 от 21 сентября 2019 года «О коренном совершенствовании Археологических исследований».

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики I. «Формирование системы социальных, правовых, экономических инновационных идей информированного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. Выделяют следующие четыре этапа развития археологии Ташкентского оазиса: 1) исследования археологов краеведов-коллекционеров любительского характера в конце XIX – начале XX вв. 2) становление научных археологических исследований в 20-х – начале 40-х гг. XX века, в который проводились топографические исследования и формировались стратиграфические методы раскопок. 3) На продвинутом этапе археологических исследований в 1945-1980 гг. основное внимание уделялось стратиграфическим раскопкам памятников. Постепенное развитие археологических комплексов изучалось путем наблюдения за культурными слоями. На данном этапе в теоретических разработках ученых-исследователей анализировались вопросы, связанные с общественно-политической историей древности¹⁰². 4) Исследования 1991-2022 годов характеризуются совершенствованием стратиграфических методов раскопок и внедрением достижений точных наук (совершенствование методов абсолютной датировки, применение ГИС-технологий в археологии) и характеризуется проведением мультидисциплинарных (междисциплинарных) исследований. Обсуждались вопросы, связанные с историей древних времен, особенно с общественно-политической жизнью скотоводческих племен¹⁰³.

